



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma’lumotlar



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **34,9** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,2** mingtaga kamaygan yoki **8,5** %ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,4** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2024- yilning yanvar-iyunida **3,4** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,9** %ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 2024- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

| | | |
|------|-------------------|------|
| 940 | Oqqo'rg'on t. | 2,7 |
| 877 | Ohangaron t. | 2,5 |
| 1087 | Bekobod t. | 3,1 |
| 1831 | Bo'stonliq t. | 5,2 |
| 954 | Bo'ka t. | 2,7 |
| 1073 | Quyichirchiq t. | 3,1 |
| 4219 | Zangiota t. | 12,1 |
| 1808 | Yuqorichirchiq t. | 5,2 |
| 2982 | Qibray t. | 8,5 |
| 1886 | Parkent t. | 5,4 |
| 843 | Piskent t. | 2,4 |
| 1621 | O'rta Chirchiq t. | 4,6 |
| 978 | Chinoz t. | 2,8 |
| 1553 | Yangiyo'l t. | 4,5 |
| 2540 | Toshkent t. | 7,3 |
| 849 | Nurafshon sh. | 2,4 |
| 1374 | Olmaliq sh. | 3,9 |
| 1936 | Angren sh. | 5,5 |
| 1217 | Bekobod sh. | 3,5 |
| 850 | Ohangaron sh. | 2,4 |
| 2286 | Chirchiq sh. | 6,6 |
| 1182 | Yangiyo'l sh. | 3,4 |


2024- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **34886** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3420** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1-iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Zangiota tumanida **4219** tani yoki jamiga nisbatan **12,1** %ni tashkil etdi.

2024- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

■ Korxonalar soni

■ Ulushi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*


| | |
|-------------------|------|
| Zangiota t. | 26,4 |
| Ohangaron sh. | 21,8 |
| Qibray t. | 19,3 |
| Parkent t. | 17,4 |
| Nurafshon sh. | 15,2 |
| Yuqorichirchiq t. | 15,1 |
| Toshkent t. | 14,1 |
| Ohangaron t. | 13,8 |
| Yangiyo‘l sh. | 13,8 |
| O‘rtachirchiq t. | 13,7 |
| Chirchiq sh. | 13,2 |
| Bo‘stonliq t. | 12,6 |
| Bo‘ka t. | 12,1 |
| Bekobod sh. | 11,7 |
| Piskent t. | 11,0 |
| Yangiyo‘l t. | 10,7 |
| Angren sh. | 10,6 |
| Oqqo‘rg‘on t. | 10,6 |
| Quyichirchiq t. | 10,1 |
| Bekobod t. | 9,7 |
| Olmaliq sh. | 9,4 |
| Chinoz t. | 8,3 |

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2024- yilning 1-iyul holatiga, birlikda



2024- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **13,6** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan **1,4** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Zangiota tumanida **26,4** birlik, Ohangaron shahrida **21,8** birlik, Qibray tumanida **19,3** birlik, Parkent tumanida **17,4** birlik va Nurafshon shahrida **15,2** birlikka yetdi.




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Zangiota tumani
26,4 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Toshkent tumani
14,1 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Chinoz tumani
8,3 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida 26,4 birlik, Ohangaron shahrida 21,8 birlik, Qibray tumanida 19,3 birlik, Parkent tumanida 17,4 birlik, Nurafshon shahrida 15,2 birlik, Yuqori Chirchiq tumanida 15,1 birlik, O'rta Chirchiq tumanida 14,9 birlik, Toshkent tumanida 14,1 birlik, Ohangaron tumanida 13,8 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1-iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Zangiota tumani

26,4

Qibray tumani

19,3

Nurafshon shahri

15,2

Ohangaron shahri

Parkent tumani

21,8


17,4

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2024- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da


| 2023- y. | | 2024- y. |
|----------|-------------------|----------|
| 103 | Oqqo'rg'on t. | 146 |
| 149 | Oxangaron t. | 90 |
| 222 | Bekobod t. | 125 |
| 175 | Bo'stonliq t. | 171 |
| 141 | Bo'ka t. | 133 |
| 80 | Quyichirchiq t. | 92 |
| 351 | Zangiota t. | 370 |
| 158 | Yuqorichirchiq t. | 163 |
| 277 | Qibray t. | 233 |
| 267 | Parkent t. | 265 |
| 88 | Piskent t. | 79 |
| 160 | O'rta Chirchiq t. | 166 |
| 75 | Chinoz t. | 84 |
| 138 | Yangiyo'l t. | 120 |
| 231 | Toshkent t. | 222 |
| 117 | Nurafshon sh. | 123 |
| 156 | Olmaliq sh. | 128 |
| 175 | Angren sh. | 194 |
| 110 | Bekobod sh. | 130 |
| 130 | Oxangaron sh. | 79 |
| 232 | Chirchiq sh. | 188 |
| 138 | Yangiyo'l sh. | 119 |




2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Zangiota tumani – **10,8** %, Parkent tumani – **7,7** %, Qibray tumani – **6,8** %, Toshkent shahri – **6,5** %, Angren shahri – **5,7** %, Chirchiq shahri – **5,5** %, Bo'stonliq tumani – **5,0** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-iyuni davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami 19327 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – 7155 (yoki 37,0 %) ta, xizmat sohasida – 4625 (yoki 23,9 %) ta, sanoat sohasida – 3702 (yoki 19,2 %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2538 (yoki 13,1 %) ta va qurilish sohasida – 1307 (yoki 6,8 %) tani tashkil etgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2023-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, %da



■ 2023- y. ■ 2024- y.

Sanoat Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi Investitsiya Qurilish Chakana savdo Xizmatlar Yuk tashish Yuk aylanmasi Yo'lovchi tashish Yo'lovchi aylanmasi Eksport Import




■ 2023- y. ■ 2024- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-iyunida), %da

2024-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **47,4** %ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,4** punktga ko'paygan.



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, %da




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **96,7** %ni, yo'lovchi tashishda **94,2** %ni, qishloq xo'jaligida **91,3** %ni, chakana savdoda **85,8** %ni, qurilishda **78,9** %, xizmatlar sohasida **69,4** %ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, trln so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, trln so'mda



Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, trln so'mda



Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

| | |
|--------------------|--------|
| Chirchiq sh. | 3042,8 |
| Zangiota t. | 2175,0 |
| Toshkent t. | 1144,8 |
| Yuqori Chirchiq t. | 1100,6 |
| Qibray t. | 1083,5 |
| Angren sh. | 815,5 |
| Ohangaron sh. | 712,5 |
| Yangiyo'l t. | 637,1 |
| Parkent t. | 519,8 |
| O'rta Chirchiq t. | 506,3 |
| Quyi Chirchiq t. | 483,8 |
| Chinoz t. | 482,2 |
| Yangiyo'l sh. | 408,3 |
| Olmaliq sh. | 384,5 |
| Ohangaron t. | 362,9 |
| Oqqo'rg'on t. | 289,6 |
| Bo'stonliq t. | 283,0 |
| Nurafshon sh. | 192,7 |
| Bo'ka t. | 163,8 |
| Bekobod t. | 155,1 |
| Piskent t. | 143,3 |
| Bekobod sh. | 114,9 |

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **15201,9** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Chirchiq shahri (**3042,8** mlrd. so'm), Zangiota tumani (**2175,0** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**1144,8** mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (**1100,6** mlrd. so'm) va Qibray (**1083,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Bekobod shahrida (**114,9** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2024- yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 25,4 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Zangiota tumani (95,4 %), Parkent tumani (92,6 %), Chinoz tumani (78,7 %), Toshkent tumani (75,1 %), Yangiyo‘l shahri (72,8 %), Yuqori Chirchiq tumani (70,0 %), Quyi Chirchiq tumani (66,6 %), Oqqo‘rg‘on tumani (62,1 %), Bekobod tumani (58,1 %) va Bo‘ka tumani (51,9 %) tashkil etdi.

| | |
|--------------------|------|
| Zangiota t. | 95,4 |
| Parkent t. | 92,6 |
| Chinoz t. | 78,7 |
| Toshkent t. | 75,1 |
| Yangiyo‘l sh. | 72,8 |
| Yuqori Chirchiq t. | 70,0 |
| Quyi Chirchiq t. | 66,6 |
| Oqqo‘rg‘on t. | 62,1 |
| Bekobod t. | 58,1 |
| Bo‘ka t. | 51,9 |
| O‘rta Chirchiq t. | 49,6 |
| Chirchiq sh. | 47,1 |
| Yangiyo‘l t. | 44,8 |
| Piskent t. | 41,8 |
| Angren sh. | 27,6 |
| Ohangaron sh. | 26,3 |
| Qibray t. | 19,6 |
| Bo‘stonliq t. | 19,1 |
| Nurafshon sh. | 11,1 |
| Ohangaron t. | 8,6 |
| Bekobod sh. | 2,7 |

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm) va ulushi


| | | |
|-------|--------------------|-------|
| 166,4 | Oqqo'rg'on t. | 100,0 |
| 300,3 | Quyichirchiq t. | 100,0 |
| 258,6 | O'rta Chirchiq t. | 100,0 |
| 257,6 | Parkent t. | 99,7 |
| 196,7 | Yangiyo'l sh. | 99,7 |
| 574,5 | Toshkent t. | 99,2 |
| 557,2 | Zangiota t. | 99,1 |
| 126,6 | Chinoz t. | 98,8 |
| 632,3 | Yangiyo'l t. | 97,9 |
| 323,5 | Nurafshon sh. | 97,9 |
| 166,4 | Ohangaron t. | 96,4 |
| 224,4 | Angren sh. | 94,3 |
| 736,4 | Chirchiq sh. | 93,6 |
| 448,0 | Yuqori Chirchiq t. | 92,5 |
| 81,5 | Bekobod t. | 92,3 |
| 132,6 | Piskent t. | 88,2 |
| 50,3 | Bekobod t. | 84,3 |
| 226,3 | Bekobod sh. | 76,4 |
| 121,1 | Bo'ka t. | 75,6 |
| 190,6 | Bo'stonliq t. | 64,5 |
| 435,9 | Qibray t. | 63,3 |
| 185,5 | Olmaliq sh. | 16,0 |

2024- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6392,8** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **79,8** %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **113,1** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Chirchiq shahri (**736,4** mlrd. so'm), Yangiyo'l tumani (**632,3** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**574,5** mlrd. so'm), Zangiota tumani (**557,2** mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (**448,0** mlrd. so'm), Qibray tumani (**435,9** mlrd. so'm) hamda Nurafshon (**323,5** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **14137,6** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **44,3** %ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi Yuqori Chirchiq tumani (**3705,8** mlrd. so'm), Ohangaron tumani (**1718,1** mlrd. so'm), Angren shahri (**1312,4** mlrd. so'm), Qibray tumani (**877,8** mlrd. so'm), Zangiota tumani (**808,4** mlrd. so'm), Chirchiq shahri (**764,2** mlrd. so'm), Bo'stonliq tumani (**647,2** mlrd. so'm) hamda Toshkent (**618,4** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **15724,2** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **91,3** %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **102,9** %ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Zangiota tumani (**440,0** mlrd. so'm), Bekobod tumani (**375,0** mlrd. so'm), Bo'stonliq tumani (**374,7** mlrd. so'm), O'rta Chirchiq tumani (**367,0** mlrd. so'm), Qibray tumani (**358,3** mlrd. so'm) hamda Chinoz (**357,8** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi (mlrd so'm) va ulushi



■ hajmi (mlrd so'm) ■ ulushi

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **12348,3** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **85,8** %ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **109,2** %ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi mlrd so'm

| | |
|--------------------|---------|
| Zangiota t. | 1 568,9 |
| Olmalik sh. | 134,7 |
| Toshkent t. | 998,9 |
| Qibray t. | 899,5 |
| Yangiyo'l sh. | 825,4 |
| Angren sh. | 713,9 |
| Bo'stonliq t. | 701,2 |
| Chirchiq sh. | 597,8 |
| Oqqo'rg'on t. | 570,5 |
| Bekobod sh. | 546,1 |
| Parkent t. | 507,4 |
| Bo'ka t. | 475,6 |
| Ohangaron sh. | 443,0 |
| Yangiyo'l t. | 419,4 |
| Yuqori Chirchiq t. | 349,3 |
| Chinoz t. | 346,2 |
| Bekobod t. | 309,9 |
| Piskent t. | 251,0 |
| Quy Chirchiq t. | 211,7 |
| O'rta Chirchiq t. | 172,3 |
| Nurafshon sh. | 167,6 |
| Ohangaron t. | 138,1 |


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani (**1568,9** mlrd. so'm), Olmalik shahri (**1134,7** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**998,9** mlrd. so'm), Qibray tumani (**899,5** mlrd. so'm), Yangiyo'l shahri (**825,4** mlrd. so'm), Angren shahri (**713,9** mlrd. so'm) va Bo'stonliq (**701,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

| | |
|--------------------|--------|
| Zangiota t. | 1091,3 |
| Chirchiq sh. | 1012,9 |
| Olmaliq sh. | 885,1 |
| Qibray t. | 874,4 |
| Toshkent t. | 809,2 |
| Angren sh. | 754,5 |
| Bo'stonliq t. | 657,2 |
| Yangiyo'l sh. | 654,0 |
| Yangiyo'l t. | 648,1 |
| Bekobod sh. | 646,8 |
| Yuqori Chirchiq t. | 571,5 |
| Parkent t. | 535,0 |
| O'rta Chirchiq t. | 442,4 |
| Bo'ka t. | 418,4 |
| Bekobod t. | 398,1 |
| Oqqo'rg'on t. | 376,5 |
| Chinoz t. | 334,9 |
| Ohangaron sh. | 272,7 |
| Quyichirchiq t. | 231,2 |
| Nurafshon sh. | 226,6 |
| Ohangaron t. | 196,9 |
| Piskent t. | 196,6 |


2024- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **12234,5** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **69,4** %ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **112,7** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Zangiota tumani (**1091,3** mlrd. so'm), Chirchiq shahri (**1012,9** mlrd. so'm), Olmaliq shahri (**885,1** mlrd. so'm), Qibray tumani (**874,4** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**809,2** mlrd. so'm), Angren shahri (**754,5** mlrd. so'm) va Bo'stonliq tumani (**657,2** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyunida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, ming. AQSH dol.

Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **968,8** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **30,6** %ini tashkil etdi.


2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi mln AQSH dollari

| | |
|--------------------|------|
| Zangiota t. | 43,2 |
| Chirchiq sh. | 30,5 |
| Toshkent t. | 19,0 |
| Angren sh. | 15,9 |
| Nurafshon sh. | 15,7 |
| Qibray t. | 14,9 |
| Yuqori Chirchiq t. | 13,9 |
| O'rta Chirchiq t. | 12,8 |
| Yangiyo'l t. | 12,4 |
| Yangiyo'l sh. | 10,1 |
| Parkent t. | 10,0 |
| Olmaliq sh. | 9,6 |
| Quyi Chirchiq t. | 9,2 |
| Chinoz t. | 8,6 |
| Ohangaron sh. | 8,1 |
| Bo'stonliq t. | 7,7 |
| Bo'ka t. | 7,6 |
| Ohangaron t. | 5,5 |
| Oqqo'rg'on t. | 3,6 |
| Piskent t. | 3,2 |
| Bekobod t. | 2,8 |
| Bekobod sh. | 2,3 |

2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'ka tumani – **99,8** %, Bekobod tumani – **99,4** %, Qibray tumani – **98,2** %, Yangiyo'l shahri – **97,4** %, Nurafshon shahri – **84,4** %, Zangiota tumani – **81,7** %, O'rta Chirchiq tumani – **80,3** % va Oqqo'rg'on tumani – **76,3** %ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Olmaliq shahri – **3,1** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **968,8** million AQSH dollarini yoki jami importning **53,4** %ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da

2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Bo'ka tumani – **100,0** %, Yangiyo'l shahri – **99,8** %, Bekobod tumani – **99,6** %, Oqqo'rg'on shahri – **98,4** %, Zangiota tumani – **97,8** %, Parkent tumani – **97,3** %, Toshkent tumani – **91,66** %, hamda Yuqori Chirchiq tumani **86,0** %ni tashkil etdi.


| | |
|--------------------|-------|
| Zangiota t. | 234,2 |
| Chirchiq sh. | 176,8 |
| Qibray t. | 106,8 |
| Toshkent t. | 99,4 |
| Ohangaron sh. | 54,5 |
| Angren sh. | 42,7 |
| Yangiyo'l sh. | 42,1 |
| Yuqori Chirchiq t. | 40,5 |
| Yangiyo'l t. | 37,7 |
| Ohangaron t. | 20,6 |
| Piskent t. | 17,7 |
| Bo'stonliq t. | 17,5 |
| O'rta Chirchiq t. | 16,0 |
| Chinoz t. | 15,2 |
| Nurafshon sh. | 13,6 |
| Olmaliq sh. | 11,7 |
| Quyichirchiq t. | 6,8 |
| Parkent t. | 5,2 |
| Oqqo'rg'on t. | 3,7 |
| Bekobod t. | 2,3 |
| Bekobod sh. | 1,9 |
| Bo'ka t. | 1,7 |

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **31,0** %ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **111,4** %ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **52,9** %ni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **100,8** %ni tashkil qildi.



**Yo‘lovchi
tashishda**

2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,2** %ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **110,9** %ni tashkil qildi.




**Yo‘lovchi
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,7** %ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **105,1** %ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1831** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **611 (33,4 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **1058 (57,8 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **162 (8,8 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **40,1 % (734 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,8 % (511 ta)**, sanoatda – **19,0 % (347 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **7,6 % (139 ta)**, qurilishda – **5,5 % (100 ta)**ni tashkil etdi.

2024- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

| | | |
|-----|-------------------|------|
| 38 | Nurafshon sh. | 2,1 |
| 90 | Olmaliq sh. | 4,9 |
| 114 | Angren sh. | 6,2 |
| 64 | Bekobod sh. | 3,5 |
| 41 | Ohangaron sh. | 2,2 |
| 142 | Chirchiq sh. | 7,8 |
| 74 | Yangiyo'l sh. | 4,0 |
| 30 | Oqqo'rg'on t. | 1,6 |
| 32 | Ohangaron t. | 1,7 |
| 37 | Bekobod t. | 2,1 |
| 98 | Bo'stonliq t. | 5,4 |
| 53 | Bo'ka t. | 2,9 |
| 55 | Quyichirchiq t. | 3,0 |
| 212 | Zangiota t. | 11,6 |
| 97 | Yuqorichirchiq t. | 5,3 |
| 173 | Qibray t. | 9,4 |
| 92 | Parkent t. | 5,0 |
| 51 | Piskent t. | 2,8 |
| 76 | O'rta Chirchiq t. | 4,2 |
| 48 | Chinoz t. | 2,6 |
| 77 | Yangiyo'l t. | 4,2 |
| 137 | Toshkent t. | 7,5 |


■ Korxonalar soni

■ Ulushi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota tumani (212 ta), Qibray tumani (173 ta), Chirchiq shahri (142 ta), Toshkent (137 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning II choragida **309** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **611** taga yetgan yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **293** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2019- yilda **1 1340** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragida **1 126** ta yoki **71** taga kamaygan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning II choragida **105** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning II choragiga kelib **196** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilning II choragiga nisbatan **82** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning II choragida **695** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **II choragiga** kelib esa **686** taga yetgan 2019- yilning II choragiga nisbatan **63** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning II choragida **953** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **II choragiga** kelib esa **844** taga yetgan 2019- yilning II choragiga nisbatan **118** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning II choragida **79** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **II choragiga** kelib esa **89** taga yetgan 2019- yilning II choragiga nisbatan **49** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning II choragida **17,6** %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **II choragiga** kelib esa **10,2** %ga yetgan yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **19,3** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning II choragida **76,4** %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **II choragiga** kelib esa **65,1** %ga yetgan yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **4,6** % birlik oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning II choragida **6,0** %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **II choragiga** kelib esa **90,1** %ga yetgan yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **80,1** % birlik oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning II choragida **40,2** %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **34,7** %ga yetgan yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **12,3** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning II choragida **55,2** %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **54,5** %ga yetgan yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **7,2** % birlik oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning II choragida **4,6** %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **10,9** %ga yetgan yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **5,2** % birlik oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **39,4** %ni, xizmatlar sohasida– **31,9** %ni va sanoatda – **16,7** %ni, ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **41,7** %ni, xizmatlar sohasida– **25,6** %ni va sanoatda – **19,4** %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **32,1** %ni, xizmatlar sohasida– **27,8** %ni va sanoatda – **24,7** %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **39,4** %ni, xizmatlar sohasida – **28,7** %ni, va sanoatda – **18,9** %ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **41,3** %ni, xizmatlar sohasida **26,7** %ni, va sanoatda – **18,7** %ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p xizmatlar sohasida **35,8** %ni, savdoda – **31,3** %ni va sanoatda – **22,4** %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, %da


| | O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|--|---|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 36,7 | 51,0 | 12,3 |
| Band bo'lganlar soni | 24,4 | 69,0 | 6,6 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 30,8 | 62,9 | 6,3 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari | 24,7 | 68,4 | 6,9 |
| Raqobat muhiti | 34,6 | 61,0 | 4,4 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|--|-------------------------------------|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 41,1 | 53,6 | 5,3 |
| Band bo'lganlar soni | 25,9 | 70,5 | 3,6 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 30,8 | 65,1 | 4,1 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari | 27,4 | 68,1 | 4,5 |
| Raqobat muhiti | 34,8 | 61,6 | 3,6 |


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, %da



2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, %da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli